

## **TARJIMON KOMPETENSIYASI TUSHUNCHASI VA KOMMUNIKATIV-KOMPONENTLIK SHAKLLANTIRISH MASALALARI**

**Absalamov Xiloliddin Uchkunovich**

*Samarkand davlat chet tillar institute Ingliz tili fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

---

### **ARTICLE INFO.**

**Kalit so'zlar:**

Kasbiy kompetensiyasi, kompetentlik atamasi, professional fikrlash, professional intuitsiya, professional vazifalarini mustaqil hal etish, tarjimonning ish qo'rollari.

---

### **Annotatsiya**

Tarjimonlik faoliyatiga maxsus o'quv fani sifatida yondashish lozim. Tarjimonlik qobiliyatini shakllantrishga faqatgina maxsus qobiliyatga ega shaxslargina loyiq degan firk noto'g'ridir. Ushbu holat umume'tirof etilgan bo'lib, barcha malakali tarjimonlar tayyorlovchi ta'lim muassasalarida tarjimonlik kasbini egallash xohishiga ega bo'lgan talabalarga tarjima nazariyasi va amaliyoti bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish lozim.

---

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

Tarjimonning kasbiy kompetensiyasi, uning tarkibiy tuzilmasi, kommunikativ o`ziga xosligini tahlil qilishdan oldin shuni ta`kidlab o`tish lozimki, tarjimonlik kompetensiyasiga ta`sir qiluvchi omillar nafaqat uning bilim darajasidan aniqlanadi balki uning shaxsiy fazilatlari, ijtimoiy muloqot doirasi ham o`z ta`sirini ko`rsatadi. So`nggi vaqtarda kompetensiya va kompetentlik termini qator ta`limga oid hujjatlarda qo'llanilib kelinmoqda. Ingliz, fransuz va nemis tilidagi chet el nashrlarida ushbu atama ko`p ma`noli atama- «competence» - ya`ni 5 ma`noga ega bo`lgan atama sifatida qo'llaniladi:

- ✓ qobiliyat;
- ✓ mahorat;
- ✓ harakat natijasining samaraliligi;
- ✓ layoqat;
- ✓ harakatni bajarishga ishtiyoyq.

Kompetentlik atamasining eng tarqalgan izohi bu – bilimlar, qobiliyatlar, layoqatlar, intelektual va shaxsiy tafakkur, ma'lum darajadagi murakkablikni tashkil qiluvchi masalani hal qilish uchun zarur bo`lgan jamlanmasidir.

Rus olimlarining tadqiqot ishlarini tahlil qilish jarayonida kompetensiya va kompetentlik kabi ikki atamaga duch kelamiz. Ushbu ikki atama ba`zi hollarda sinonim sifatida, ba`zi hollarda kompetentlik atama sifatida, kompetensiya atamasi esa ingliz tilidan noto`g`ri qilingan tarjim sifatida talqin qilinadi.

Psixologiya, psixodidaktika va metodikada til kompetensiyasiga ma'lum qobiliyatlar majmui sifatida

izoh berilib, ushbu qobiliyatlar lisoniy jamiyat a`zosiga muloqotga kirishish uchun va tilni egallash uchun zaruriy ko`nikmadir. Ta`kidlab o`tish joizki bu kabi vaziyatlarda ham kompetensiya va kompetentlik atamasi sinonimlar sifatida ishlataladi. M.A.Xolodnaya «Intellektual kompetentlik» atamasini kiritadi, va ushbu atama individual bilimlar va o`ziga xos xususiyat shaklini tashkillashtiruvchi layoqat sifatida izohlanadi [10,73].

Kommunikativ kompetentlik tushunchasi Ya. van Ekaning «Chet tiliga o`rgatish maqsadlari» tadqiqot ishida aniq va qamrovli izohlanadi: «...kommunikativ kompetensiya ma`lum bir muloqot vaziyati yoki ijtimoiy-madaniy kontekstga bog`liq bo`lgan tushunish, aytib berish va ifodalangan fikr mazmunini bayon etish qobiliyati natijasidir. Shu bilan bir qatorda kommunikativ maqsadga adekvat holda nutq harakatlarini amalga oshirish, muloqotga kirishuvchining ruhiy holati va jamiyatdagi tutgan o`rnini inobatga olgan holda, adekvat nutqiy qobiliyatlarga, lisoniy ko`nikmalarga, fonetik, grammatik, ma`lum bir tilga xos bo`lgan leksik hodisalardir» [10,73].

Kommunikativ kompetensianing murakkabligi va serqirraligi uning tarkibidagi komponent tushunchasi izohida ham ko`rinadi. Ya.van Ek global kommunikativ kompetensianing quyidagi kompetensiya-komponentlarini ajratib ko`rsatadi:

Lisoniy kompetensiya – til normalariga muvofiq ravishda fikrni bildirishga tayyorgarlik/qobiliyat, shu bilan bir qatorda ona tilini va chet tilini egallahda o`zlashtiriladigan tushunish maqsadida so`zning, gapning, matnning elementar darajadagi tahlili ko`nikmasiga ega bo`lishdir.

Sotsiolingvistik - muloqotning ma`lum bir vaziyatiga mos nutqiy harakatlarni tushunish va bajarishga tayyorgarlik/qobiliyat, ya`ni muloqotning ijtimoiy kontekstini idrok etish va inobatga olish (muloqotning qayerda, kim bilan, qanday maqsad bilan o`tishiga qarab lisoniy shakllarning anglangan holda tanlab olinishi, qo`llanilishi va tushunilishi).

Diskursiv kompetensiya - kommunikativ kontekstga muvofiq ravishda bayon etilayotgan fikr mazmunini qurish va idrok etish.

Strategik kompetensiya – notanish til kodini yetarki darajada bilmaslik jarayonida verbal va noverbal kommunikativ strategiyalarni qo`llashga tayyorgarlik/qobiliyat.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya – chet tili egalari o`rtasida qabul qilingan muloqot normalari haqidagi bilimlarni qo`llash, ijtimoiy madaniy kontekstga moslashish va xabardorlik tayyorgarlik/qobiliyati.

Ijtimoiy-psixologik kompetensiya – muloqotning real vaziyatlarida ijtimoiy munosabatlar qurish layoqati, o`zga jamiyat a`zolari bilan o`zaro nutqiy munosabatga kirishish tayyorgarlik/qobiliyati [5, 73].

Yuqorida keltirilgan izohlardan ko`rinib turibtiki, alohida olingen kompetensiya muloqot ishtirokchisining ma`lum bir bilim, nutq va o`zini tutish ko`nikmalari va layoqati, shu bilan bir qatorda shaxsnинг tub intellektual sifatlari shuningdek integrallashgan imkoniyatlarini ifoda etadi. N.I.Gezning fikricha kommunikativ kompetensianing bu tarzda tushunilishi til vositalarini muloqot vazifalari va shartlarini ijtimoiy hatti harakatlar normalari va fikr bayonining kommunikativ maqbulligi bilan o`zaro nisbati tushuniladi [5, 74].

Kommunikativ kompetensianing ma`lum tarzda tashkillashtirilgan, sistemalashtirilgan kompetensiyalar (tayyorgarlik/qobiliyat) majmui kabi talqin qilinishi Yevroppadagi ilg`or va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosini tashkil etadi.

Shuni ta`kidlash lozimki, professional kompetensiya atmasiga ham yuqoridagilardan kam bo`lmagan izohlar beriladi. Oxirgi 5 yillikda bu atama chet el psixologik va pedagogik tadqiqotlarda kompleks o`rganildi, ushbu tadqiqotlarda kompetesiya tushunchasi ko`plikda ishlatalib, biror narsa qila olish qobiliyatiga sinonim ravishda qo`llaniladi, professional kompetensiya tushunchasi bu ma`lum bir bilimlar qobiliyat ma`lum bir harakat funksiyani o`ziga xos bajara olishning ijtimoiy safdag'i

to`plamidir.

Professional darajada ahamiyatga ega bo`lgan kompetensiyalarning shakllantirilganligi professional fikr yuritish va mutaxassis oldiga qo`ygan maqsadga erishish uchun zarur va shartdir. A.K.Markova ham professional kompetentlik borasida quyidagi fikrlarni bayon etgan. Tadqiqotchining fikricha mutaxassisning professional kompetentligi o`z ichiga maxsus, ijtimoiy, individual, shaxsiy aspektlarni olib quyidagi sifatlar bilan xarakterlanadi:

- ✓ professional fikrlash, professional intuitsiya, professional vazifalarni mustaqil hal etish;
- ✓ turg`un professional motivatsiya;
- ✓ o`ziga ishonch, o`ziga yuqori baho berish;
- ✓ kasbni o`ziga va o`zini kasbga moslashtirish, universallik;
- ✓ professional qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ✓ professional malaka oshirish;
- ✓ professional o`sishning shaxsiy strategiyasini ishlab chiqish [5, 74].

Tarjima jarayonini professional faoliyat sifatida tushunish, tillarni professional darajada bilish uchun uning murakkab funksional tizimini va professional ahamiyatli kompetensiyalarni aniqlash tarjimonning effektiv professional tayyorgarligi strategiyasini aniqlashga yordam beradi va bu orqali professional darajadagi lisoniy tayyorgarlikka erishiladi. Bo`lajak professional tarjimon o`z kasbiga kirishishdan oldin, o`zining tayanch lingvistik ta`lim maqsadini – professional kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishi shart.

Yuqoridagilarning barchasi maxsus tarjimonlik tayyorgarlik bosqichida yuqori darajadagi professional kompetensiyaga erishishga yordan beradi.

Yozma tarjimaga o`rgatish darslarida asosan eng elementar texnik vositalardan foydalanish metodlari mavjud. Talabalar uyg'a vazifani bosma matn tarzida oladilar va tarjima qilish talab qilinadi. Keyingi darslarda tarjimalar talabalar tomonidan muhokama qilinadi, tahrirlanadi va o`qituvchi tomonidan baholanadi. Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, o`quv jarayonida aksar hollarda talaba ham o`qituvchi ham faqatgina qog`oz, ruchka va kitob shaklida lug`atlar bilangina ishlaydilar.

Biroq o`quv jarayoniga bu kabi yondashishi bugungi kunda talabga javob bermaydi. Tajriba shuni ko`rsatmoqdaki, tarjimonning ish qo`rollari sirasiga yuqorida aytib o`tilganlardan tashqari hech bo`lmaganda Internetga chiqish imkoniyati bilan kompyuter va shu kompyuter bilan ishlash ko`nikmasining mavzudligi kirishi kerak.

Internetning tarjimon faoliyatidagi o`rnii quyidagilar bilan izohlanadi. Ma'lumki, adekvat tarjima yaratish uchun tarjimon matnning aniq mazmuni haqida tasavvurga ega bo`lishi lozim. Shu bilan bir qatorda barcha leksik birliklarning ma`nosisi, matnda qo`llanilgan morfologik shakllar hamda sintaktik kontsruksiylar haqida tushunchaga ega bo`lishi kerak.

Matnning tarjima oldi tahlilida va tarjima jarayonida matn kontekstualizatsiyasi muhim o`rin egallaydi, boshqacha qilib aytganda, tarjimon matnda aks ettirilgan voqealik fragmentini tushunishi lozim va ushbuni keng lingvomadaniy kontekstga kiritishi darkor.

Original matnidagi barcha leksik va grammatik birliklarning ma`nosini tahlil qilishga va tushunishga tarjimonga lingvistik lug`atlar yordam beradi. Matn ortidagi voqelik fragmentini tarjimon yaqqol ko`rishi va tasavvur qilishiga tarjimonning dunyoqarashi, lingvo va mamlakatshunoslik bo`yicha bilimlari, mamlakatshunoslik bo`yicha turli ma'lumotnomalar va maxsus sohalar (tarix, texnika, tibbiyot) bo`yicha qo`llanmalar yordam beradi.

Biroq, hozirgi davrda insoniyat faoliyatining barcha sohalarida bionimlar ko`laming oshishi, va til

borasidagi o‘zgarishlar (ayniqsa sleng, maxsus terminologiya borasida va b.) qog‘oz variantidagi lug‘atlar va ma‘lumotnomalardan ancha ilgarilab ketmoqda. Bundan tashqari, kommunikatsiya texnologiyalar rivojlanishi bilan dunyo bo‘yicha amalga oshirilayotgan tarjima turlarining haddan ortiq ko‘payib ketishi bilan aksar hollarda bir tomonidan yaqin kunlarda yozilgan matnlar tarjimasini amalga oshirishga to‘g‘ri kelmoqda, ikkinchi tomonidan – yuqori madaniyatga emas, balki bugungi kunnning dolzarb mummaolariga bag‘ishlangan matnlar tarjimasi dolzarblikni kasb etmoqda.

Shu bois Internetga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan tarjimon tarjima qilinayotgan zamonaviy matnni kontekstualizatsiyasini tushunmaydi va tarjima sifati yetarli darajada yuqori bo‘lmaydi.

Internet tarjimonga ko‘p sondagi lug‘atlar bilan, aksar hollarda hozirgi kunning eng hurmatga sazovor lug‘atlarining elektron versiyalari yaratilgan, ishlash imkoniyati mavjud. Elektron lug‘atlar masalasi tarjimonlar va tarjimaga o‘rgatuvchilar orasida ko‘pgina savollarni keltirib chiqaradi. Masalan, mashhur elektron lug‘atlar (bularning sirasiga “Lingvo” va “Multitrana” ham kiradi) tanqid qilinishining asosiy sabablaridan biri, ushbu lug‘atlarda ketma-ketlik yo‘q, leksikografik standartlarga to‘g‘ri kelmaydi, va tahrirlashning ochiq shaklda ekanligi, ya’ni xohlagan odam ularga o‘zgartirish kiritish imkoniyatiga ega, uning kompetentligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Biroq shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki elektron-lug‘atlar, foydalanuvchilar tomonidan tahrir qilib borilayotganlari ham, yaqin davrda paydo bo‘lgan so‘zlar va iboralar tarjimasida muhim ma‘lumotnomha bo‘lib xizmat qiladi.

Shuni ham ta’kidlab o‘tish lozimki, bugungi kunda, ham umumiyligi, ham maxsus davriy nashrlarning elektron variantlari yaratilmoqda. Shu bois, Internetda mavjud resurlarning aksari qog‘oz variantlari ham mavjud, va ular hech qanday alohida ahamiyatga ega emas degan mulohazalar puchga chiqib bormoqda.

Agar Internet fakultativ emas, balki tarjimonning kundalik ish quroliga aylansa oliy ta’lim muassassalari talabalarni va o‘qituvchilarni dunyo elektron tarmog‘iga tadqiqot masalalari yuzasidan ulanishining chegaralanmagan kirish huquqini ta’minlab berishi kerak. Aks holda talaba va o‘qituvchidan dars jarayonida Intenetdan foydalanishni talab qilish etika qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi uchun quyidagilar taklif qilinadi:

1. Institutning barcha korpuslari yetarli sondagi Internetga ulangan kompyuterlar bilan ta’minlanishi, har qanday holda talabalar va o‘qituvchilarning Intenet tarmog‘iga kirishlarini nazorat qilish uchun barcha kompyuterlar yagona tarmoqga ularib, har bir talabaga va o‘qituvchiga individual parol berilishi lozim.
2. Albatta barcha tarjimaga oid kurslarni Internet tarmog‘iga ulangan holda o‘tkazish shart emas, shu bois barcha o‘quv korpuslarini WiFi-simsiz aloqani o‘rnatish maqsadga muvofiq. Har bir talaba va o‘qituvchi WiFi aloqasi mavjud noutbuk yoki telefon orqali kerak bo‘lganda Internetga ularib ish olib borish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu kabi tarmoqning tashkillashtirilishi statsionar kompyuter faoliyatini sekinlashtirmaydi.

Internet tarmog‘i on-line lug‘atlardan tashqari yoma tarjimaga o‘rgatishda turli texnik uskunalardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Jumladan, bu uskunalar sirasiga raqamli kodoskopni kiritish mumkin.

Raqamli kodoskop (ingl. visualiser, document camera) – bu shunday uskunaki, uning yordamida yuzaga qo‘yilgan har qanday rasm, chizma yoki yozuv ekranda yoki oq devorda aks ettiriladi. Umumiy holda raqamli kodoskop ish yuzasini, yuzada joylashtirilgan rasmlarning nur manbai orqali yoritilishni, optik kattalashtiruvchi va aniqlikni to‘g‘irlovchi avtomatik funksiyasi mavjud uskuna shakliga ega.

Raqamli kodoskop o‘qituvchiga proeksiya ekranga har qanday ob’ektlar chizmasini, qo‘lyozmalarni (kichik xajmdagi), kitoblarni (katta xajmdagi) chiqarishga imkoniyat beradi. Rasmlarni ko‘rsatish, kitoblar sahifalarini o‘zgartirish, varaqlash, yozuvlarga turli o‘zgartirishlar kiritish amallar umuman vaqtini olmagan holda amalga oshiriladi.

Yangi uskuna o‘quv jarayoniga joriy etilishi uchun, bizning fikrimizcha u to‘rt talabga javob berishi lozim. Raqamli kodoskop orqali biz ushbu to‘rt talabni ifodalab beramiz. Raqamli kodoskopning yozma tarjima darslarida amaliy foydasi kattadir. Auditoriyada o‘qituvchi talabalar bilan ishslash jarayonida ikki turdag'i ishni bajarash: uyda bajarilgan tarjimalarni (yoki boshqa yozma topshiriqlarni) tekshiradi va talabalarga aydoriyada yozma yoki og‘zaki-yozma shaklda bajarilishi kerak bo‘lgan topshiriqlarni beradi.

Yozma ravishda bajarilgan uyg'a vazifani tekshirish ikki maqsadda amalga oshiriladi. Birinchidan, talabalar berilgan vazifaning qay darajada to‘g‘ri bajarganliklarini tekshiriladi, qanday xatolarga yo‘l qo‘yliganini va ular qay usullar orqali to‘g‘irlash mumkinligini bilib olishadi. Ikkinchidan, talabalar boshqaning amalga oshirgan tarjimalarni sharhlab, tarjimalarning xato-kamchiliklarini va yutuqlarini ta‘riflaydilar. Ishning bu ikkinchi bosqichi tarjimonlik faoliyatining professional ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat ega.

O‘zga tarjimani sharhlash orqali talabalar tarjimani tahririlash ko‘nikmalarni shakllantiradi. Bu vazifani bajarish jarayonida talaba mavjud tarjima variantlarining barcha alternativalarini ko‘rib chiqadi, va tarjima variantlarining adekvat ekvivalentlarini soni ko‘p bo‘lishini anglab yetadi. O‘zga tarjimalarni tanqidiy fikrlash orqali baholash, bo‘lajak tarjimonga baholash kriteriyalari va mulohazalarini malakali formulirovka qilishni o‘rgatish bilan bir qatorda, tarjima jarayonida yo‘l qo‘ylgan xatolarni aniqlashga va o‘zining amalga oshirgan tarjimasini ham tahrir qilishni o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

Bugungi kunga qadar talabalar amalga oshirgan tarjimalarini bu kabi tahlilini va tahriri amalga oshirish ko‘p vaqt talab qilar edi. Chunki matnning ma’lum bir qismini o‘qib uning tarjimasida yo‘l qo‘ylgan xato va kamchiliklarni aniqlash va tahlil qilish uchun bu qismni bir necha marta o‘qishga to‘g‘ri kelar edi. O‘qituvchi o‘qib eshittirilayotgan tarjimalarni qiyoslash, erishilgan natijalarini tahlil qilish, yutuqlarni va kamchiliklarni aytish uchun yozib borishiga to‘g‘ri kelar edi.

Albatta bu jarayon kuchli e’tiborni va ortiqcha vaqt sarflanishini talab qiladi. Boshlovchi tarjimonga, odatda u o‘zining tarjimasi bilan mashg‘ul bo‘ladi, tarjimalarning boshqa variantlarini esda saqlab turib ularni analistik tahlilini olib borishi uchun uch-to‘rt marta o‘qib eshittirilish talab qilinadi. Natijada auditoriyadagi barcha talabalar tarjima variantlarini tushunishlari uchun ushbu variantni bir necha bo aloxida qismlarga bo‘lib o‘qib eshittirilishi lozim. Bundan tashqari bu holda tahririlash og‘zaki amalga oshiriladi va talabalar yozuvlarida natijalar aniqligicha o‘z aksini topmaydi.

Raqamlikodoskop esa auditoriyalarga bu jarayonning samaradorligini oshiradi. O‘qituvchi va talabalar tahrir olib borilayotgan matn bilan doimiy vizual aloqada turishadi, xuddi talaba bilan individual ish olib borilayotgani kabi. Kodokop bilan yuqorida amaliyotni qo‘yidagicha tashkil qilish mumkin. Talabalar o‘zlarining tarjima variantlarini 2 nusxada printerdan chiqarib olib kelishadi. Muhokama qilinayotgan tarjimaning bir nusxasi kodoskop orqali yoritiladi.

Shu tarzda, auditoriyada o‘tirgan talabalarning barchasi muxokama qilinishi kerak bo‘lgan tarjima vriantini ko‘rib turishadi. So‘ngra talaba o‘z tarjimasini o‘qib eshittiradi. Muhokama jarayonida o‘qituvchi tarjima matniga o‘zgartirishlar (o‘zi yoki boshqa talabalar tomonidan taklif qilingan) kiritishi mumkin. Bu o‘zgartirishlar yuzada aks ettirilib boriladi. Natijada tahlil va tahrir uchun talab qilingan vaqt ancha tejaladi va tahrirning to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini ayni vaqtning o‘zida vizual tarzda nazorat qilib borish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tarjima variantlarini katta ekranga olib chiqishning yana bir afzallik tomoni shundaki, o‘qituvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan tarjimalar sifati darajasiga yuqori talab qo‘yladi, ya’ni ushbu variant nafaqat stilistik va mazmunan original matnga mos kelishi, balki matnning texnik rasmiylashtirilishi ham, orfografik xatolar, tarjima amalga oshiriliayotgan tilning punktuatsiyasiga amal qilish, yetarli darajada bo‘lishi lozim. Amaliyotda bu talablar har doim ham to‘g‘ri bajarilmaydi. Talabalar darsga o‘z tarjima variantlarini ko‘plab orfografik va punktuaitson xatolari bilan, atoqli otlarning lotin yozuvni

saqlangan shakllari bilan, qavslar ichidagi yana ko'plab tarjima variantlari bilan, oxirigacha tugallanmagan gaplar bilan olib kelishadi. Matnni og'zaki o'qib eshittirilishiha bu xato va kamchiliklar askar hollarda bilinmaydi, shu boi darsga talabalar tarjima variantlarining oxirigacha, yaxshi ishlanmagan nusxalari bilan kelishadi va natijada tarjimaning baholanish darajalari ancha pasayib ketadi.

Raqamli kodoskop yordamida tarjima variantlarini proeksiya qilinishi bu kabi kamchiliklar bilan samarali kurashadi. Albatta yozma tarjima darslarida raqamli kodoskopni boshqa usllarda ham ishlatish mumkin. Masalan, zqituvchi aynan auditoriyada bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqni kodoskop orqali berishi mumkin. Bu kabi topshiriqlar parallel matnlarning qisiyl tahlilini, kichik matn tarjimasining tahririni, tarjima mashqlarini o'z ichiga olishi mumkin. Odadta bu kabi topshiriqlar xajmini va ularning qancha vaqt talab qilishini auditoriyada xal qilinadi, birinchi navbatda nima tahrir qilinish kerak va u yoki bu topshiriqqa yana qancha vaqt sarflanadi.

Shu bois o'qituvchi oldindan bir necha topshiriqlarni tayyorlashi lozim va topshiriqlarni bu tarzda tayyorlanishi o'qituvchidan bir muncha mablag'ni talab qiladi, shu bilan birga amaliyotda unchalik smarali emas. Biroq raqamli kodoskop o'qituvchining imkoniyatlarini kengaytirib auditoriya uchun material tanlash borasida ijodiy yondashuvni talab qiladi. O'qituvchi kodoskop yordamida nafaqat chop qilingan materiallarni balki, har qanday kitob, broshyura yoki elektron uskuna ekranidagi ma'lumotni yoritib beradi. Masshtabni o'zgartirish funksiyasi o'qituvchiga matnning aynan talab qilinayotgan qisminigina ekranda yoritishga imkoniyat tug'diradi.

Shu bois o'quv jarayoni ko'p rejumlilikni talab qilishi inobatga olib, ya'ni ma'lumot faqatgina bir kanal orqali (eshitish) emas balki bir necha kanal (eshitish va vizual) orqali amalga oshirilish maqsadga muvofiq. Ekranga olib chiqilayotgan materiallarning sermazmuniligi va turli tumanligi o'quv jarayonini hamisha bir xillilagini, zerikarlilagini yo'qotib talabalarga ma'lumot qabul qilishning bir turidan ikkinchi bir turiga o'tishga imkoniyat beradi.

Shu tarzda mashg'ulotlar rang-barang tashkil qilinib, talabalar psixologik jihatdan charchamasdan yangi ma'lumotni yaxshiroq qabul qilishadi. Albatta bu degan, yozma tarjima darslarnini faqatgina rasmlar ko'rsatish bilangina o'tkazish emas, balki nazariy fikrlarning ko'rgazmali rasm, sitata yoki sxema orqali aks ettirib berilishi, yoki amalga oshirilgan tarjimalarning ko'rgazmali namoyish etilishi, malakali ko'rsatmalar berilishi tezroq, va og'zaki nutqdan farqli ravishda samaraliroq o'tadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. House, Juliane (2015). Translation Quality Assessment. Past and Present. London: Routledge. – 234 p.
2. Musayev K. Fundamentals of translation theory. Tashkent: Fan. - 2005. – 352 p.
3. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan - 2005. – 352 b.
4. Salomov G'. Tarjima Madaniyati. Toshkent:O'qituvchi.- 1982. – 158 b.
5. Базылев В.Н., Красильникова В.Г. Дидактика перевода. - М.: Флинта. - 2012. – 128 с.
6. Бузаджи Д.М., Маганов А. Техника перевода. - М.: Р-Валент, 2008.– 324 с.
7. Булгакова Л.Н., Гарбовский Н.К., Нечаева В.М. Пособие по переводу (русский язык - французский язык). - М.: Русский язык, 1988. - С. 314-331.